

O'ZBEK VA RUS ADABIYOTIDA REALIZM

Allambergenov Hamza Kamalovich – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

h.allambergenov@ndpi.uz;

Jumamuratova Ruxshona Saparbayevna – *talaba*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

РЕАЛИЗМ В УЗБЕКСКОЙ И РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Алламбергенов Хамза Камалович – *доктор философии по филологическим наукам, доцент*

Жумамуратова Рухшона Сапарбаевна – *студент*

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

REALISM IN UZBEK AND RUSSIAN LITERATURE

Allambergenov Khamza Kamalovich – *Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Associate Professor*

Jumamuratova Rukhshona Saparbaevna – *student*

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: realizm, qiyosiy adabiyotshunoslik, rus adabiyoti, o'zbek adabiyoti, psixologizm, ijtimoiy konflikt.

Rezyume. Ushbu maqolada o'zbek va rus adabiyotida realizm yo'nalishining shakllanishi, rivojlanishi va badiiy-estetik xususiyatlari keng qiyosiy tahlil qilinadi. Rus adabiyotida Lev Tolstoy va Fyodor Dostoyevskiy ijodi, o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy va Cho'lpon asarlari misolida realizmning falsafiy, psixologik va ijtimoiy asoslari yoritiladi. Shuningdek, ikki adabiyot o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar batafsil ochib beriladi.

Ключевые слова: реализм, сравнительное литературоведение, русская литература, узбекская литература, психологизм, социальный конфликт.

Резюме. В данной статье широко проводится сравнительный анализ формирования, развития и художественно-эстетических особенностей реализма в узбекской и русской литературе. На примере творчества Льва Толстого и Фёдора Достоевского в русской литературе, а также произведений Абдуллы Кадыри и Чулпана в узбекской литературе глубоко раскрываются философские, психологические и социальные основы реализма. Также подробно освещаются сходства и различия между двумя литературами.

Key words: realism, comparative literary studies, Russian literature, Uzbek literature, psychologism, social conflict.

Summary. This article comparatively analyzes the formation, development, and artistic-aesthetic features of realism in Uzbek and Russian literature. Using the works of Lev Tolstoy and Fyodor Dostoevsky in Russian literature, and Abdulla Qodiriy and Cho'lpon in Uzbek literature as examples, the philosophical, psychological, and social foundations of realism are deeply explored. In addition, the similarities and differences between the two literatures are explained in detail.

Kirish. Odamzod o'zini anglabdiki, taraqqiyotning turli bosqichlarida olamni turfa shakllar-u ranglarda badiiy kashf etishga urinib kelgan. Poetik tafakkur tarzi esa har bir davrda klassitsizm, romantizm, naturalizm, sentimentalizm, simvolizm kabi adabiy yo'nalishlar doirasida rivoj topdi. Ushbu maqolada esa biz so'z yuritmoqchi bo'layotgan badiiy fikrni ifodalash yo'sini jahon adabiyotida inson hayotini haqqoniy, murakkab va ijtimoiy-psixologik jihatdan chuqur tasvirlashi, shaxs va jamiyat atrofidagi maishiy, ijtimoiy, umumbashariy muammolarni ham bor bo'yicha badiiy pishiq aks ettirishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Mazkur yo'nalish romantizmning aksi sifatida hayotni ideal holatda emas, balki uning real ziddiyatlari, ijtimoiy tengsizliklari, inson ichki dunyosidagi barcha murakkabliklarni badiiy yo'sinda aks ettirishga intiladi.

Realizm XIX asrda Yevropa adabiyotida shakllanib, ayniqsa, rus adabiyotida yuqori darajada rivojlandi va keyinchalik Sharq adabiyotiga, jumladan, o'zbek adabiyotiga ham kuchli ta'sir ko'rsata oldi.

O'zbek adabiyotida realizm hodisasi asosan XIX asr ikkinchi yarmida – jadidchilik harakati davrida tadrijiy takomilini boshladi, milliy uyg'onish g'oyalari, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi fikrlar va ma'rifatparvarlik ruhi bilan uyg'unlashgan holda rivojlandi. Realizmning asosiy mohiyati inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib berish, ijtimoiy hayotdagi qarama-

qarshiliklarni badiiy ifoda etish va inson psixologiyasini chuqur tahlil qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Realizm adabiy yo'nalishi o'ziga xos xususiyatlari haqida bir qator tadqiqotlarda munosabatlar bildirilgan. Jumladan, T.Boboyevning „Adabiyotshunoslik asoslari“, X.Umurovning „Adabiyot nazariyasi“, B.Karimovning „Adabiyotshunoslik metodologiyasi“, A.Ulug'ovning „Adabiyotshunoslik nazariyasi“, D.Quronovning „Adabiyot nazariyasi asoslari“, S.Matyakupovning „Istiqlol davri o'zbek adabiyotining nazariy masalalari“ singari manbalarda realizm tushunchasi, estetikasi va tarmoqlari, unda jamiyat, xalq mentaliteti, ijtimoiy ziddiyatlarining haqqoniy tasviri hamda o'zbek va rus adabiyotida namoyon bo'lish shakllari xususida munosabatlar bildirilgan [2, 4, 5]. Bizning ushbu tadqiqotimiz esa ustoz adabiyotshunoslar ilmiy maktabiga suyanagan holda qiyosiy usulda mulohazalarimizni bildirishga yo'naltirilgan.

Ushbu kichik tadqiqot ishini amalga oshirishda esa qiyosiy-tarixiy, tipologik, kontekstual va struktural tahlil usullari natijalaridan foydalanildi.

Muhokama. Realizm adabiy yo'nalishi dunyo adabiyotining turli xalqlarida turfa shakllarda rivoj topib, o'zida badiiy tafakkurning har bir hududga xos qirralarini namoyon etdi. Rus adabiyotida ayniqsa psixologik chuqurlik bilan ajralib turadi, o'zbek adabiyotida esa milliy

hayot, urf-odatlar va ijtimoiy muammolar tasviri ustunlik qiladi. Rus realizmining eng yirik vakillaridan biri Lev Tolstoy boʻlib, uning ijodi jahon adabiyotida epik realizmning eng yuksak namunalaridan hisoblanadi. Tolstoyning „Urush va tinchlik“ romanida Napoleon urushlari fonida rus jamiyati hayoti keng epik koʻlamda tasvirlanadi. Tolstoy qahramonlari orqali insonning ichki dunyosi va tarixiy voqealar oʻrtasidagi murakkab munosabat ochiladi. Shu bilan birga, tarixiy haqiqatlar faqat mavjud muhit sifatida emas, balki inson taqdiri bilan uzviy bogʻliq holda beriladi. Tolstoy realizmida eng muhim jihat shundan iboratki, u tarixni buyuk shaxslar emas, balki oddiy insonlar harakati belgilaydi, degan gʻoya orqali aks ettirishga urinadi.

„Insonning haqiqiy buyukligi uning urushda qilgan jasoratida emas, balki hayotning oddiy daqiqalarida oʻzini anglay olishidadir“. Ayni qarash Tolstoy realizmining asosini tashkil etadi, yaʼni insonni faqat tarixiy qahramon sifatida emas, balki oddiy hayotiy shaxs sifatida koʻrsatishdir. Roman qahramoni Andrey Bolkonskiy urushdan qaytgach, hayotning maʼnosi haqida chuqur oʻylaydi. U ilgari shon-shuhratga intilgan boʻlsa, keyinchalik insoniy qadriyatlar muhimroq ekanini anglaydi. Bu jarayon Tolstoy realizmining asosiy xususiyati – qahramonning ichki evolyutsiyasini koʻrsatishdir.

Andrey Bolkonskiy obrazida esa insonning idealizm va reallik oʻrtasidagi ichki kurashi chuqur ochiladi. Mazkur obraz avval shon-shuhrat va harbiy shuhratga intiladi, biroq hayotiy tajriba uni insoniy qadriyatlar va maʼnaviy izlanishlar tomon olib boradi. Per Bezuxov obrazida insonning maʼnaviy oʻsish jarayoni tasvirlanadi, u boylik va ijtimoiy maqomdan voz kechib, hayotning asl maʼnosini izlash yoʻliga kiradi. Bundan tashqari, Tolstoy qahramonlari statik emas, balki doimiy rivojlanayotgan, ichki oʻzgarish jarayonida boʻlgan shaxslardir.

Fyodor Dostoyevskiy ijodi esa rus realizmining psixologik yoʻnalishini eng yuqori darajaga olib chiqdi. Uning „Jinoyat va jazo“ romanida inson ongining eng chuqur qatlamlari, axloqiy tanlov va vijdon azobi markaziy oʻrinda tasvirlanadi. Asar qahramoni Raskolnikov oʻzini „alohida inson“ hisoblab, jinoyat qilishga jurʼat etadi, ammo keyinchalik uning ichki ruhiy olami parchalanadi hamda vijdon azobi uni iztirobga soladi.

„Kambagʻallik ayb emas, biroq yoʻqchilik – illat. Birinchisida inson tugʻma olijanob fazilatlarini saqlab qola oladi, ammo yoʻqchilikda ularni hech qachon va hech kim saqlab qola olmaydi“. Asar personajlaridan biri bosh qahramonga ushbu haqiqatlarni hayotiy misollar asosida izohlab beradi. Universitetning sobiq talabasi boʻlgan Raskolnikov esa bu gapdan tegishli xulosa chiqara olmaydi. Natijada yoʻqchilikdan qutulish, tezda boyib ketish va yuqori mavqega ega boʻlish maqsadida aql bovar qilmaydigan jinoyat sodir qiladi. Fojiali jihati – qahramon oʻz jinoyatini oqlaydi. Ammo hayot qonunlari adolatli – jinoyatning jazosiz qolishiga imkon bermaydi. Ruhiy jazo jinoyatchini oʻz aybiga iqror boʻlishga majbur etadi. Romanda ushbu mudhish qotillikning uzluksiz uqubatlari bilan birga goʻzal muhabbat tasviri ham borki, u kitobxon qalbini beixtiyor junbushga keltiradi [6:2].

Asarda taʼkidlanganidek, „insonning eng ogʻir jazosi qamoq emas, balki oʻz vijdoni bilan kurashidir“. Mazkur gʻoya Dostoyevskiy realizmining asosini tashkil etadi. Raskolnikov ham jinoyat qilgach, tashqi dunyodan koʻra

koʻproq oʻz vijdoni tomonidan jazolanadi. Uning ruhiy holati asta-sekin parchalanib boradi, bu esa realizmning psixologik yoʻnalishini kuchaytiradi. Sonya Marmeladova obrazida esa kechirim, sabr va maʼnaviy poklik ifodalanadi. Dostoyevskiy qahramonlari tashqi harakatdan koʻra ichki ruhiy jarayonlar orqali ochiladi. Unda jinoyat tashqi hodisa emas, balki ichki psixologik jarayon sifatida tasvirlanadi.

Oʻzbek adabiyotida realizm hodisasi Abdulla Qodiriy ijodi bilan boshlangan va milliy roman janrining shakllanishiga asos boʻlgan edi. Adibning „Oʻtkan kunlar“ romani oʻzbek adabiyotida ilk realistik roman sifatida katta ahamiyatga ega. Asarda XIX asr Turkiston hayoti, feodal jamiyat tuzumi, ijtimoiy tengsizlik va ishq-muhabbat muammolari keng tasvirlanadi. Otabek obrazida yangi fikrli, maʼrifatli insonning mavjud jamiyat bilan toʻqnashuvi aks ettiriladi. U oʻz zamonasining ilgʻor fikrli vakili sifatida urf-odatlar-u yangi tafakkur oʻrtasida ziddiyatga tushadi. Kumush obrazida esa oʻzbek ayolining fojiaiy taqdiri ifodalangan, u sevgi va jamiyat anʼanalari qurboni. Qodiriy realizmida tarixiylik va milliylik uygʻunlashgan holda faqat voqealarni emas, balki butun bir davr ruhini ochib beradi. Adabiyotshunos olim, U.Dolimov taʼkidlaganidek, xalq „Oʻtgan kunlar“ni katta mamnuniyat va samimiyat bilan kutib oldi, qisqa muddatda butun Oʻrta Osiyo xalqlarining sevimli asariga aylanib ketdi. Hatto oʻsha kezlarda butun romanni yod bilganlar boʻlgan. Afsuski, mavjud shoʻrolar hukumati, kommunistik mafkura uni noxush qabul qildi“. [7:411].

Oʻzbek adabiyotida realizmning yanada chuqur psixologik va ijtimoiy bosqichini ifodalashda Choʻlpon ijodi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asarlarida inson erkinligi, mustamlaka bosimi va milliy uygʻonish gʻoyalari asosiy mavzu sifatida namoyon boʻladi. Choʻlpon qahramonlari mudom ichki ziddiyatlar qurshovida, erk orzusida, ammo ijtimoiy bosimlar fonida tasvirlanadi. Shu sababli uning realizmi psixologik va ijtimoiy realizmning uygʻunlashgan shakli sifatida namoyon boʻladi.

Yozuvchining „Kecha va kunduz“ romani oʻzbek adabiyotida realistik roman janrining eng muhim va murakkab namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar XX asr boshlaridagi Turkiston jamiyatining ijtimoiy, siyosiy va maʼnaviy holatini chuqur badiiy tasvirlashga qaratilgan boʻlib, unda mustamlaka davri muhitidagi xalq hayoti, zulm va erkinlik oʻrtasidagi ziddiyatlar, shaxsning ichki iztiroblari keng koʻlamda ochib beriladi. Roman realistik uslubda yozilgan boʻlsa-da, unda psixologik tasvir, ramziylik va falsafiy umumlashmalar kuchli ifodalangan.

Asarning markazida jamiyatning turli qatlamlari, ayniqsa oddiy xalq vakillari va ularning ogʻir hayoti turadi. Choʻlpon voqealarni faqat tashqi hodisalar sifatida emas, balki ijtimoiy tizimning ichki buzilishlari natijasi sifatida koʻrsatadi. Asarda zulm ostidagi jamiyat manzarasi, inson huquqlarining poymol etilishi va maʼnaviy tanazzul realistik uslubda ochib beriladi. Zotan „Kecha va kunduz“ nomining oʻzi ham ramziy maʼnoga ega boʻlib, zulmat va yorugʻlik, yaʼni eski tuzum va yangi hayot oʻrtasidagi kurashni ifodalaydi.

Romanda Zebi asosiy obrazlardan boʻlib, u oʻzbek ayolining fojiaiy taqdirini ifodalaydi. Zebi oddiy, sodda va pok qalbli qiz sifatida tasvirlanadi, biroq u yashayotgan jamiyat qahramonning taqdirini belgilab qoʻyadi. Erkin tanlov imkoniyatidan mahrum boʻlgan Zebi jamiyatning qatʼiy urf-odatlari va maishiy muammolari girdobida

qoladi. Unda inson erkinligi va jamiyat zulmi o'rtasidagi keskin ziddiyat ochib beriladi. Ushbu obraz orqali Cho'lpon ayol taqdirini faqat shaxsiy fojia emas, balki ijtimoiy tuzumning natijasi sifatida badiiy aks ettiradi.

Asarning asosiy g'oyasi – zulm va jaholat ustidan ma'rifat va erkinlik g'oyasining ustun kelishi zarurligini ko'rsatishdir. „Kecha“ eski tuzum, jaholat va zulmni ifodalasa, „kunduz“ni yangi hayot, erkinlik va ma'rifat ramzi sifatida talqin qilish mumkin. Shu orqali Cho'lpon jamiyatning o'zgarishi, inson erkinligi va ma'naviy uyg'onish zarurligini badiiy dalillaydi. Adabiyotshunos olim Begali Qosimov ta'biri bilan aytganda, „Kecha va kunduz“ mavzu va yo'nalishiga, muallifning unga yondashishiga ko'ra, aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy „O'tgan kunlar“ining davomidir. Asarda XX asr boshidagi Turkiston hayoti, turg'unlik va tutqunlikda mudragan o'lkadagi uyg'onish lavhalarini qalamga olinadi [9:452].

Roman realistik yo'nalishda yozilgan bo'lishiga qaramay, unda psixologik tahlil juda kuchli. Qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va hayotiy tanlovlari batafsil ochib beriladi. Bu jihatdan asar Fyodor Dostoyevskiy ijodidagi psixologik realizmga yaqinlashadi, chunki unda ham insonning ichki dunyosi markaziy o'rinda turadi. Biroq Cho'lpon asarida bu jarayon milliy muhit va ijtimoiy sharoit bilan uzviy bog'langan.

Xulosa. Umuman, o'zbek va rus adabiyotida realizm hodisasi, avvalo, ularning umumiy jihatlarida namoyon

bo'ladi: har ikkala adabiyotda ham ijtimoiy muammolar asosiy o'rinda turadi va inson taqdiri markaziy mavzu hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim farqli jihatlar ham mavjudki, rus realizmida psixologik tahlil juda chuqur, inson ongining ichki qatlamlari kengroq ochiladi, o'zbek nasriga xos badiiy asarlarda esa ijtimoiy muhit, milliy hayot va urf-odatlar tasviri ustunlik qiladi. Rus adabiyotida ichki monolog, falsafiy mushohada va ruhiy konflikt asosiy o'rinda bo'lsa, o'zbek adabiyotida voqealar aniq ijtimoiy muhit va tarixiy sharoit bilan bog'liq holda tasvirlanadi.

Yoki Lev Tolstoy romanlarida jamiyat keng epik ko'lamda tasvirlansa, Cho'lpon asarida ko'proq mustamlaka ostidagi jamiyatning ichki tanazzuli va shaxs fojiasi yoritiladi. Abdulla Qodiriy ijodida esa tarixiy realizm va milliy roman shakli ustun bo'lsa, Cho'lpon asarida psixologik va ijtimoiy realizm uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, realizm adbiy yo'nalishi insonni, uning hayotini chuqur va haqqoniy aks ettirishga qaratilgan badiiy tasvir usullaridan biri sifatida rus adabiyotida psixologik-falsafiy chuqurlik bilan, o'zbek adabiyotida esa milliy va ijtimoiy ruh bilan rivojlandi. Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy, Abdulla Qodiriy va Cho'lpon ijodi klassik adabiyot intihosidan so'ng endigina kurtak yoza boshlagan zamonaviy badiiy talqinda realizmning inson va jamiyat munosabatlari turli nuqtayi nazardan ochib berilgan eng yuksak namunalari sifatida xizmat qila oldi.

Adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: «Navro'z», 2019.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: «O'zbekiston», 2000.
3. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: «Ilm-ziyo-zakovat», 2019.
4. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: «Muharrir», 2011.
5. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: «Akademnashr», 2018.
6. Достоевский Ф.М. Жиноят ва жазо. – Тошкент: «Ғафур Ғулом», 1977.
7. Долимов У. Абдулла Қодирий / Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: «Маънавият», 2004.
8. Лев Толстой. Уруш ва тинчлик. – Тошкент: «Ғафур Ғулом», 1979.
9. Қосимов Б. Чўлпон / Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: «Маънавият», 2004.